https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble

Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

**O'roqova Gulnoza Baxtiyor qizi**
Xalqaro Nordik Universiteti
magistratura talabasi
Email:g.oroqova@nordicuniversity.org
ORCID:0009-0007-1814-8867
Telefon raqami: +998881169800

# BOSHLANG'ICH SINFLARDA CHAPAQAY O'QUVCHILARNI YOZUVGA O'RGATISH METODIKASI (1-SINF MISOLIDA)

**Annotatsiya:** Maqolada chapaqay o'quvchilar bilan ishlash va yozuvga o'rgatish jarayonida foydalanadigan innovatsion texnologiyalar va husnixat darslarini tashkil etish metodikasi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** sinf, harf, daftar, malaka, qo'l, harakat, yozuv, husnixat, alifbo, ruchka.

**Аннотация:** В статье рассматриваются инновационные технологии, используемые в процессе работы со студентами и обучения их письму, а также методика организации уроков.

**Основные понятия:** класс, письмо, тетрадь, навык, рука, действие, письмо, письмо, алфавит, ручка.

**Abstract:** The article discusses the innovative technologies used in the process of working with students and teaching them to write, as well as the methodology of organizing lessons.

**Basic concepts:** class, letter, notebook, skill, hand, action, writing, letter, alphabet, pen.

## KIRISH

Dunyoning yuksak darajada taraqqiy etgan davlatlarida ta`lim-tarbiya ishlarining yo'lga qo'yilishi, maktablarda amalga oshirilganini o'rganish orqali biz mustaqil respublikamiz milliy ta`lim tizimlarini yangitdan tashkil qilishda,

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

ta`lim-tarbiyada, maktab ishini tashkil etishda eskirib, o‘z dolzarbligini yo’qotib borayotgan faoliyat shakllari va usullaridan tezroq halos bo‘lish, uni munosib tarzda yangilashda qo‘shimcha boy manbalarga ham ega bo‘lamiz. Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik tadqiqotlarni amalga oshiradigan ko’p sonli ilmiy muassasalar ishlab turibdi. Germaniyada ularning soni 2 mingdan ortiq. Fransiya, AQSh, Yaponiya ta`lim-tarbiya nazariyasi muammolari bilan yuzlab davlat va xususiy tashkilotlar, universitetlar, pedagogik tadqiqot markazlari shug’ullanmoqdalar.

Mamlakatimizda boshlang‘ich ta’limda o‘qitishni sifat jihatdan jadal rivojlantirish, o‘quvchilarni mustaqil fikrlash, atrofdagi voqelikka ongli munosabatda bo‘lish, nutq va tafakkurini rivojlantirishning muhim omili sifatida boshlang‘ich ta’lim tizimidan boshlab ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng miqyosda qo‘llash zaruratini yuzaga keltirdi. Jumladan, boshlang‘ich sinflardan boshlab yozuv savodxonligini oshirish, o‘quvchilarning tayanch kompetensiyalari mazmunini takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor berilmoqda.

Jahon amaliyotida chapaqay o‘quvchilarni yozuvga o‘rgatish, o‘quvchilar chapaqayligining fiziologik, psixologik va pedagogik xususiyatlari, boshlang‘ich sinf chapaqay o‘quvchilarini yozuvga o‘rgatish texnologiyalarini tizimli tarzda tashkil etish, chapaqay o‘quvchilarni yozuvga o‘rgatish samaradorligini oshirishning pedagogik strategiyasi va taktikasini takomillashtirishga oid bo’lgan qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Chunki so‘nggi vaqtlarda jahonda chapaqaylar soni ortib bormoqda. Masalan, XX asr boshida ular aholining 4 %ini tashkil etgan bo‘lsa, endilikda bu ko‘rsatkich 15 %ni tashkil etmoqda. Statistik ma’lumotga ko‘ra, hozirda er yuzida 600 million chapaqay odam bor. Bu har 10-15 nafar kishining bittasi demakdir. Yozuvga o‘rgatish jarayonida harakatlarni bajarishda deyarli barcha holatlarda chap qo‘ldan foydalanuvchilar chapaqaylardir.Shu bilan birga, boshlang‘ich ta’limda chapaqay o‘quvchilarni yozuvga o‘rgatish orqali

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

didaktik tizimni va individual faoliyatni modellashtirish orqali o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlarini insonparvarlashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. Chapaqay o‘quvchilarni yozuvga o‘rgatishdan asosiy maqsad kichik yoshdagi o‘quvchilarga yozishdek murakkab jarayonni o‘rgatish orqali, ularning chiroyli yozuv ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishdan iborat. Yozuvga o‘rgatishning oldiga bir qator vazifalar qo‘yiladi.

Ko‘pchilik ota-onalar chapaqay bolalarini chiroyli yozishga o‘rgata olmayotganliklaridan qiynaladilar. Chunki farzandlari oddiy bolalarday ruchkani ushlay olmaydi. Bu hol ularni asabiylashtiradi. Chapaqay o‘quvchilarni yozuvga o‘rgatish muammosi bugungi kunda turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Boshlang‘ich sinflarda yozuvga o‘rgatishda chapaqaylikni o‘rganish mazmunining pedagogik trening, pinboard, pragmatizm, ergonomika usullari (pedagogik) hamda praksiologiya, perseptiv (psixologik) yo‘nalishlarini tasniflash va tajriba aloqadorligi empirik baholash orqali takomillashtirilgan. Bosh miya chap va o‘ng yarim shardan iborat. Bosh miyaning chap yarim sharida nutq markazlari joylashgan. Shuning uchun bosh miyaning chap yarim sharida so‘z bilan bog‘liq barcha tafakkur g‘oyalari amalga oshiriladi. Bosh miyaning o‘ng yarim shari ob’ektlarning fazoviy joylashuvini tahlil qilish uchun javob beradi. Masalan, atrof-muhitdagi uylar, daraxtlar, mashinalar, haykallar va har qanday shaklga ega bo‘lgan ob’ektlarning shakl-shamoyilini tahlil qiladi. Demak, bosh miyaning o‘ng yarim shari dunyoni so‘z ishtirokisiz qabul qiladi va bu erda, asosan, ko‘rish analizatorining ahamiyati muhim hisoblanadi. Chap yarim shar esa so‘z bilan ifodalangan ma’lumotlarni qabul qiladi va tahlil qiladi. Obrazli qilib aytganda, chap yarim shar, asosan, so‘z bilan, o‘ng yarim shar esa ko‘z bilan dunyoni idrok etadi. Bu uyg‘unlik saqlangan bo‘lsa, insonning xotirasi mustahkam bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasida bolalarni boshlang‘ich ta’lim jarayonlarida yuqorida aytilgan masalalarni rivojlantirish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son Qarori “O‘zbekiston

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Respublikasida Ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori va Ta’lim sohasida ko‘plab qarorlar qabul qilingan.[1]

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Yuqorida keltirilgan qaror va farmonlarni joriy qilinishdan maqsad, kelajak avlodni yetuk shaxs bolib yetishishi uchun uning ilmli bo‘lishiga zamin yaratishdir. Boshlang’ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarni insonparvarlashtirish, yanada mukammal bilim egasi etib tarbiyalash va o’quvchilarni yozuvga o’rgatish metodikasini yangilash ta’lim jarayonining asosi hisoblanadi. Olimlar, tadqiqotchi mutaxassislarning tobora ko‘proq qismi maktab yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalash tizimi shaxsga majmuali, insoniy tasir o‘tkazishi, har bir o‘quvchining muntazam va imkon qadar to‘la jismoniy rivojlanish huquqi amalga oshirilishini ta’minlashi kerak, degan xulosaga kelmoqdalar.Shunga ko‘ra mavzu yuzasidan adabiyotlarni tahlil qilish jarayonida.

Mamlakatimizda Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni husnixat bilan yozishga o'rgatish metodikasi ularda aniq , chiroyli va tez yozish imkonini yanada takmillashtirish, chapaqay o’quvchilari yozuga o’rgatish bo’yicha bir qancha kitoblar, o’quv qo’lanmalar, maqolalar nashr ettirilgan bo’lib, olimlardan X.G’uIomova, Sh. Yo’ldosheva, G. Mamatova, H. Boqiyeva, N. Sobirova, V.I.Isxakov, N.O‘rinboev, Abdullayev Q, Nazarov Q, Yo’ldoshevs Sh, R.U.Arziqulov, A.Abdullaev, A.Xasanov, S.Uraimovlarning adabiyotlarida mavzuyimizga doir bo’lgan jihatlar o’rganilgan.[2] E.V. Gur’yanov tomonidan tuzilgan “Yozuv mashqlarning psixologik eslatmalari’ va ‘Alifbe davrida yozuvga o’rgatishning psixologiyasi va metodikasi’ nomli qollanmalari[3]da ham mavzuga doir masalalar o’rganilgan.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni
[2] /Users/User/Downloads/Husnixat%20va%20uni%20o’qitish%20metodikasi.
[3] E.V. Gur’yanov “Yozuv mashqlarning psixologik eslatmalari’

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Xorijlik olimlardan S.Hadfield, P.Preece, C.Boone, C.Achterberg, A.Bandura, J.Rickettslar boshlang'ich sinflar, ularning faoliyatidagi muommolar,har bir bosqichning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishgan. Bu adabiyotlardagi ma'lumotlar esa chapaqay o'quvchilarni yozuvga o'rgatishda yuzaga keladigan muommolarni hal etishda keraklidir.

## METODOLOGIYA

Chapaqay o'quvchilarni yozuvga o'rgatishda qo'llaniladigan innavatsion texnologiyalar va metodlar o'qitishning mantiqiy tomonlariga, komponentlari va vazifalariga asoslanib tasniflanadi. Maktabdagi o'qitish metodlarining yagona tasnifi yo'q. Tasnif tartib va tizimni vujudga keltiradi. Umumiy va muayyan, nazariy va amaliy, muhim va tasodifiy o'qitish metodlarini aniqlashga yordam beradi, shu orqali ulardan amaliyotda samaraliroq foydalanishga xizmat qiladi. Dastlab Maktabda IV chorak tajriba-sinov ob'ekti qilib olindi. Tadqiqot 2 oy davomida 1-sinf 26 nafar o'quvchilar ishtirokida amalga oshirildi. Tadqiqot davomida guruhda to'liq o'qituvchilar ishtirok etdi. Maktabda o'tkaziladigan Jismoniy tarbiya darslarida Milliy o'yinlar samaradorligi bir guruhda ya'ni 1-sinflarda tadqiqot yakunida tekshirish o'tkazish asosida aniqlanadi.

Bugungi mavzudan nimalar o'rgandingiz? kabi savollarga har bir o'quvchi o'z javobini yozib, olib chiqadi va o'qib beradi. Bu mashg'ulotda ham o'quvchilarning o'tgan va yangi mavzu asosida olgan bilimlari aniqlanadi. Darsni chiroyli boshlashda samarali muloqot Fedbek berish bilan ham boshlash juda yaxshi natija beradi. Men shunday boshlayman. Salom aziz bolalarim, mening gul-u lolalarim. Hammangiz bor, omonmisiz, bugungi darsga tayyormisiz?. O'quvchilar: Aziz ustoz sog'-omonmiz, dars boshlashga biz tayyormiz. Juda yaxshi bolajonlar, bilishimcha, bugun hamma darsga tayyor. Adashmasam bugungi darsimizda hammangiz yuqori bal olishga oshiqmoqdasizlar kabi muloqotlar o'z samarasini bermoqda. Yaxshilarning ziynati bobidan savollar: 1-guruhga:

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Xushmuomalalik mavzusida 2-guruhga: Kulish madaniyati mavzusida Bunda o‘quvchilar o‘z bilganlari va donolar hikmatlari, mavzu-mazmuniga tayangan holda tezroq o‘z g‘oyalari bilan tog‘larga chiqishga harakat qiladilar.

Yozuv darslarida ham o‘quvchilar nutqini o‘stirish, fikrlashga o‘rgatish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Shu bilan birga ushbu davr o‘quvchilarni to‘g’ri va chiroyli savodli yozishlari uchun asosiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Chiroyli yozuv qoidalarini yaxshi bilish yozuv malakasining shakllanishiga yaqindan yordam beradi. Chiroyli yozuv qoidalarini qisqa va tushunarli qilib bayon etish lozim, shundagina o‘quvchilar uni to‘liq o‘zlashtirishlari va amalda qo‘llashlari mumkin.Biz bu maqola yozish jarayonida olib borgan sinov-tajribamizda quyidagi usullardan foydalandik:

1. Chiziqli usul.

2. Genetik usul

3. Namunaga qarab yozish usuli.

4. Namunaga qarab ko'chirish usuli.

5. Nusxa ko'chirish usuli.

6. Tasawur orqali yozish usuli.

7. Ritmik usul(sanoq-ohang)

8. Harf shakllarini tahlil qilish usuli

9. Yozuv malakasini ongli o'zlashtirish usuli

10. Qo'l harakatini mashq qildirish usuli. Ammo bu usllarning hamasi bilan chapaqay o’quchilarda yozish malakalari to’laligicha rivolanmaydi. Chunki ma’lumotlarga qaraganda, chapaqay bolalarning qo‘pchiligi o‘zining chap qo‘lda yozishidan uyalar ekan. Bir muddat o‘ng qo‘lda yozishga harakat qilib, uddalay olmagach, yana chap qo‘lda yozishni boshlar ekan. Ma’lumki, shu paytga qadar

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

chapaqay insonlarning aksariyati noyob iste'dodga ega bo‘lishadi, degan aqida mavjud. Chapaqay bolalar yozishga biroz qiynaladi. Chunki biror - bir matnni yozayotganda chap qo‘l yozilayotgan yozuvni berkitib turadi. Ular qayta-qayta yozganlariga qarayveradi. O‘ng qo‘lda yozadiganlar esa yozganlarini ko‘rib turib davom ettiraveradi va vaqtdan yutadi. Aslini olganda, bu vaqtinchalik holat. Doimiy ravishda chap qo‘l bilan yozish natijasida ba'zi chapaqay o‘quvchilar o‘ng qo‘lda yozadiganlardan ham o‘zib ketadi. Masalan, so‘zlarda harflarning balandligini va qiyaligini bir xilda saqlash, so‘zlarda harf unsurlari va harflar oralig‘ini bir xil uzoqlikda chamalab yozish kabi qoidalarni asta-sekin o‘z o‘rnida o‘rgatib borish lozim. Yozuvning qiyaligi haqidagi tushunchalar chuqur singdirilgandan so‘ng, harflarni bir xil masofada tekis yozish qoidalari o‘rgatiladi. Harflarni qo‘l harakatini uzmasdan yozish qoidalari o‘rganilgandan so‘ng, so‘zlarni qo‘l harakatini uzmasdan yozish qoidalari o‘rgatiladi. Ammo har bir qoidani har darsda o‘quvchini bezdiradigan darajada takrorlash yaramaydi, bunda ongli ravishda o‘zlashtirish uchun mo‘ljallangan qoidalar asqotishi mumkin. Sanoq-ohang usuli. Bunda o‘qituvchi harf va uning unsurlarini sanash orqali yozdirib tushuntiradi. Bu usulni ayniqsa savod o‘rgatish davrida keng qo‘llash mumkin. Sanoq-ohang usuli harflarning tekis yozilishini ta'minlaydi va harf unsurlarining tushib qolishiga yo‘l qo‘ymaydi; sekin yozadigan o‘quvchilarni tez yozishga undaydi; o‘quvchilarga harakatlarni aniq va dadil bajarishni o‘rgatadi. Ammo bu usuldan butun dars davomida foydalanish tavsiya qilinmaydi, chunki o‘quvchilar charchab, yozuv sifatini pasaytirib yuborishlari mumkin. Sanoq-ohang usulini qo‘llashda, asosan, harflarning asosiy unsuri “bir”, “ikki”, “uch” deb sanab boriladi, yordamchi ulash unsuri esa “va” deb bog‘lanadi. Sanoq-ohang usulidan bo‘g‘in, so‘z va gaplarni yozdirishda ham foydalanish mumkin. Boshlang‘ich sinfda o'quvchilarni husnixatga o'rgatishning asosiy maqsadi ham o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini ravon qilish hamda ularni har tomonlama yetuk insonlar etib tarbiyalash bilan bir qatorda, ularni go‘zallikka intiluvchi, uni yurakdan his

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

qila oladigan go‘zallikni yaratishga intiladigan kishilar qilib voyaga yetkazishni nazarda tutadi.

**Nusxaga qarab ko'chirish usuli.** Bu usul qadimiy usul bo‘lib hozirgi kunda ham qimmatini yo‘qotmagan holda qo‘llanilib kelinmoqda.Bu usulda o;quvchilar harflami ’Husnixat” kitobi yoki ’Yozuv daftari”dagi namunalarga qarab ko‘chirib yozadilar. Tayyor holdagi nuqtalar bilan ifodalangan harflar ustidan qo‘lni yurgizib mashq qilish mexanik jarayon bo'lib, 0‘quvchilar bu topshiriqni oson bajaradilar. ’Husnixaf’daftarida berilgan namunaga qarab yozdirish 0‘qituvchining vaqtini tejaydi , ish unumini oshiradi. Nusxa ko‘chirish usuli Bu metod harf shaklini to‘g‘ri tasawur qila olmaydigan,yozayotganda daftar chiziqlaridan pastga yoki yuqoriga chiqib ketadigan 0‘quvchilar uchun qo‘llaniladi. Ayrim hollarda o‘qituvchi chiroyli yozuvga o'rgatishning dastlabki davrida o‘quvchilarni harf, uning elementlari haqida to‘g‘ri tasawurga ega qilish uchun yupqa xitoy qog'ozidan ham foydalanishi mumkin.Lekin bunday mashqlar qo‘l harakatini o‘stirish uchun yordam beradi. Bundan uzoq foydalanish yaxshi samara bermaydi, o‘quvchi harf shaklini mustaqil yoki namunaga qarab yozishda qiynaladi. Shuning uchun ham bu usuldan yakka shug‘ullanganda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Undan tashqari men sinovlarmiz daomida boshlang’ichlar uchun yangi usuldan foydalandim. Ya’ni “ **Harflarni jonlantiramiz” usuli.** Bu usul nafaqat o’ng yozadigan,balki chapqo’llar uchun ham yozishni osonlantiradigan usul.

Yangi usulda har bir harfni “jonlantiramiz” ularni animatsiya orqali harakatga -keltiramiz . Chunki 1-sinf o’quvchilari yozganidan ko’ra ko’rganlarini ko’proq va tez esda saqlaydilar.Har bir harfni o’tayotganimizda ushbu viderilikdan foydalanib darsni boshlasak, darsimiz ham qiziqarli ham sifatli bo’ladi

## MUHOKAMA

Yozuvga o’rgatishning ahamiyati, ayniqsa turli qiziqarli metod va usullardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan holatdan ba'zi muhim fikrlar mavjud.


https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Boshlang'ic sinflarda chapaqay o'quvchilarni yozuvga o'rgatish jarayoniga jiddiy ilmiy yondashish zarurligini ta'kidlagan matnda chapaqay bolalar uchun yozuvni o'rganishning samarali vositalari va usullarini tushunish muhimligi ta'kidlangan. Yozuvga o'rgatish yoshga xos xususiyatlar va ilmiy tamoyillarni hisobga olgan holda, bolalar salohiyati va chiroli yozuv malakalarini rivojlantirishga samarali hissa qo'shishi mumkin. 1-sinfda yozuv mashqlarini tashkil etish birmuncha murakkab bo'ib, bir necha xil vazifani o'z ichiga oladi: bolalar o'qituvchining so'zini tinglaydilar, doskaga yozgan harf va so'zlarni ko'rib boradilar, ayrim matnlarni ko'chirib yozadilar, so'z va bo'g'inlarni tahlil qiladilar va hokazo. Har bir yozuv mashg'ulotini boshlashdan oldin hamda butun dars jarayonida ham o'quvchilarga to'g'ri o'tirish qoidalarini eslatib turish maqsadga muvofiqdir. Bu masalani oson hal etishning yana bir yo'li sinfga to'g'ri o'tirish qoidalari ko'rsatilgan ko'rgazmalarni osib qo'yishdir. O'quvchilarda chiroyli, aniq va toza yozishga qiziqish va muhabbat uyg'otish uchun birinchi navbatda o'qituvchining o'zi chiroyli yozishi lozim. 1- sinfda o'qish darslarida o'quvchilar tovush hamda bosma harflar bilan tanishtirilsa, tovush va harflarni analiz va sintez qilish orqali ularning nutqi o'stiriladi. Shu kabi yozuv darsining ham ayrim spetsifik xususiyati bor. Masalan, agar o'quvchilar o'qish darsida «Alifbe» kitobidagi tayyor bosma harflardan foydalansalar, yozuv darsida bu narsa ko'rinmaydi. Har bir harf va uning elementini o'quvchining o'zi namunaga qarab yozadi. Shuning uchun ham bu sinfda yozuvga o'rgatish o'z navbatida quyidagi kabi qator tushunchalarni bilishni talab etadi: baland-past, bir xil, keng-tor, yaqin-uzoq, yuqoriga, pastga, o'rta (oraliq), uzunroq-kaltaroq, teng, teng bo'magan masofa, to'g'riqiya, chapga-o'ngga. O'qituvchi yozuv malakasiga o'rgatishga boshlashdan oldin o'quvchilar bilan yuqoridagi ko'rsatib o'tilgan tushunchalar ustida ish olib borishi lozim. Bu o'quvchilarga harflarning shaklini uning harakatini yaxshi tushunishlariga katta yordam beradi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

## NATIJALAR

Chapaqay o'quvchila bilan olib borgan sinov ishlarimizda yuqorida keltirilgan metodlar asosida tadqiqot olib bordik.Unga ko'ra1-"A" va 1-"B" sinflarda yuqoridagi metod va usullardan foydalanib yozuvga o'rgatsi jarayonini olib bordik. 1-diagramma 1-A"sinfda biz tavsiya etgan va q'llagan metod v usullar yordamida dars otilga, ikkinchi diagrammada esa odatiy holda. Unga kora 1-"A"sinf 80% natija, 1-"B" sinf esa 60% natija ko'rata oldi. Demak bizning usul va metodlarmizo'z samarasini ko'rsata oldi. Natijalarni diagramma orqali ko'ramiz.




**"Harflarni jonlantiramiz" usul natijasi (diagrammasi).[4]**

## Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, dars samaradorligiga erishishda ilg'or pedagogik texnologiya usullaridan foydalanishni tashkil etish, o'qituvchidan o'z ustida ishlash, intilish, innovatsion texnalogiyalarni o'rganib, darslarda qo'llash, zamon talabiga munosib bo'lishga undaydi boshlang'ich sinflarda chapaqay o'quvchilar bilan ishlashda bolalarning quyidagi o'ziga xos psixologik xususiyatlarini alohida e'tiborga molik deb biladilar:

[4] Muallim ishlanmasi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

– ular o‘z tanalarini yaxshi biladilar, harakatlarni yaxshi muvofiqlashtirishga ega, umuman, ular ko‘proq harakatchandirlar, o‘z-o‘zini nazorat qilishni talab qiladigan bir xillik faoliyatni yoqtirmaydilar;

– maktabda osongina o’qishni o‘zlashtira oladilar, atrof muhitni tez va to‘g‘ri anglash qobiliyatlari bor. Lekin yozish bilan bog‘liq muammolar bo‘lishi mumkin. Chunki bu yerda chiroyli va aniq yozish talab etiladi va bu imtiyoz - chap yarim shar ixtiyoriga berilgan;

– ularda umumlashtirish qobiliyati yaxshi rivojlangan, ammo tahlil qilishga urinish, aksincha, qiyinchiliklarga olib keladi;

– ular boy tasavvurga ega.

Biz ham aynan shu jihatlarni inobatga olgan holda ish jarayonimizni olib borsak maqsadimizga albatta erishamiz.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**:

1. 2019-yil 29 apreldagi “O’zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida” PF- 5712-sonli Farmoni

2. Prezident Shavkat Mirziyoyev olimlar ilmiy tadqiqot rahbarlari va ishlab chiqarish sektori vakillari bilan uchrashuv. 31.01.2020y.

3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to’g’risida” PF- 5847-son Farmoni.

4. Y.Y. Azimov, R.A.Qo‘ldoshev. «Husnixatga o ‘rgatishning amaliy asoslari»(Metodik qo‘llanma)-Toshkent. «Turon Zamin Ziyo» nashriyoti, 2017.132 b.
5. Safarova R., M. Inoyatova, M. Shokirova, L. Shermamatova “Alifbe” (qayta ishlangan 16-nashri). Toshkent. “Ma’naviyat” 2018 yil.
6. Avezmurodovich O. R. Difficulties in learning to write and read left-handed children//European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8 (8), 40. –2020. – T. 45.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

7. Qo'ldoshev R. CHAPAQAY BOLALARNI MAKTABGA QANDAY TAYYORLASH KERAK? //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). –2021. – Т. 2. – №. 2.
8. Qoldoshev, Avezmurodovich Rustambek, and Farhodqizi Gulruh Yodgorova. "How to find out right or left." Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR) 10.1(2021): 154-163.
9. Qo'ldoshev A. R. G'aforovna Habiba Jumayeva.(2021). Forming Writing Skills inLeft-Handed Students. Middle European Scientific Bulletin, 10 (1).
10. Quldoshev, R. A. "Assistant pedagogue to children left-handed reading in the last year." Globe Edit.–2020 (2020).
11. Qo'ldoshev A. R. Psychological aspects of left-handedness: concept, causes, and peculiarities //Psychology and Education Journal. – 2021. – Т. 58. – №. 1. – С. 4981-4988.

12. Innovatsion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. – Toshkent: 2015. 42-bet.

13. Boshlang'ich sinf mehnat ta'limini o'qitishda noan'anaviy usullardan foydalanish"Boshlang'ich ta'lim va jismoniy madaniyat yo'nalishida sifat va samaradorlikni oshirish: muammo va echimlar" nomli Xalqaro ilmiy konferensiya maqolalar to'plami. (I-qism) TDPU 2017 25-may..

14. Ismatova Z.A., Orifova O.J. O'quv-tajriba maydonchasi va unda integrativ yondashuv asosida darslarni tashkil etish // Journal of marketing, business and management. 2023. 15-21. – b.

15. Azimov Y.Y. Husnixat va uni o'qitish usuliyoti (o'quv-usuliy qo'llanma). -Buxoro, 2008. -104 bet. 2. Azimov Y.Y. Husnixatga o'rgatishning amaliy asoslari (Metodik qo'llanma). –Toshkent: "Turon Zamin Ziyo" nashriyoti, 2017. -132 bet